



SA'DUDDIN TAFTAZONI'S "MUHTASARUL MAONI" WORK – THE SECOND DOOR OPENED TO THE WORLD OF EDUCATION

Ergashev Abdulvasi'

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

Specialization in Textual and Literary Source Studies

2nd year master's student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069490>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2026

Accepted: 06th May 2026

Online: 07th May 2026

KEYWORDS

Eloquence, Sa'duddin Taftazaniy, Mukhtasarul Maoniy, commentary and footnotes, scientific methodology, Islamic scientific heritage.

ABSTRACT

This scientific article examines the role, theoretical foundations and methodological features of the work "Mukhtasarul Maoniy" created by the great thinker Sa'duddin Taftazoni in the development of education, based on a deep scientific analysis. The study substantiates the reasons for the creation of this work, in particular, the need to condense the author's extensive commentary on the work "Talkhis miftah al-ulum", the complexities of the scientific environment of that time and the needs of students. In conclusion, it is emphasized that the work "Mukhtasarul Maoniy" is a fundamental work that has played an important role in systematizing the science of eloquence, presenting it in an easy and understandable form, and developing scientific thinking. Despite being an abbreviated commentary, it is considered a high-level scientific heritage with independent scientific value.

РАБОТА СААДУДДИНА ТАФТАЗОНИ «МУХТАСАРУЛ МАОНИ» – ВТОРАЯ ДВЕРЬ, ОТКРЫТАЯ В МИР ОБРАЗОВАНИЯ

Эргашев Абдулваси

Международная академия исламоведения Узбекистана

Специализация: текстология и литературоведение

Студент магистратуры 2-го курса

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069490>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2026

Accepted: 06th May 2026

Online: 07th May 2026

KEYWORDS

Красноречие, Саадуддин Тафтазани, Мухтасарул Маоний, комментарий и сноски, научная методология,

ABSTRACT

Данная научная статья, основанная на глубоком научном анализе, исследует роль, теоретические основы и методологические особенности работы «Мухтасарул Маоний», созданной великим мыслителем Саадуддином Тафтазони, в развитии образования. Исследование обосновывает причины создания этой работы, в частности, необходимость обобщения обширного комментария автора к работе «Талхис мифтах аль-улум», сложности научной среды



исламское
наследие

научное

того времени и потребности учащихся. В заключение подчеркивается, что труд «Мухтасарул Маоний» является основополагающим произведением, сыгравшим важную роль в систематизации науки о красноречии, представлении её в доступной и понятной форме и развитии научного мышления. Несмотря на то, что это краткий комментарий, он считается высокоуровневым научным наследием, обладающим самостоятельной научной ценностью.

SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING "MUKTASARUL MAONIY" ASARI – BALOG'AT ILMI DUNYOSIGA OCHILGAN IKKINCHI ESHIK

Ergashev Abdulvosi'

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069490>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2026

Accepted: 06th May 2026

Online: 07th May 2026

KEYWORDS

Balog'at ilmi, Sa'duddin Taftazoniy, Muxtasarul maoniy, sharh va hoshiyalar, ilmiy metodologiya, islom ilmiy merosi.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada buyuk mutafakkir Sa'duddin Taftazoniy tomonidan yaratilgan "Muxtasarul maoniy" asarining balog'at ilmi taraqqiyotidagi o'rni, nazariy asoslari va metodologik xususiyatlari chuqur ilmiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda ushbu asarning yaratilish sabablari, xususan, muallifning "Talxis miftah al-ulum" asariga yozgan keng sharhini ixchamlashtirish zarurati, o'sha davr ilmiy muhitidagi murakkabliklar va talabalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda yuzaga kelgani asoslab beriladi. Xulosa sifatida, "Muxtasarul maoniy" asari balog'at ilmini tizimlashtirish, uni oson va tushunarli shaklda yetkazish hamda ilmiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan fundamental asar ekanligi, u qisqartirilgan sharh bo'lishiga qaramay, mustaqil ilmiy qiymatga ega bo'lgan yuksak darajadagi ilmiy meros sifatida baholanishi ta'kidlanadi.

Islom ilm-fan tarixida balog'at ilmi o'zining nozik ma'nolari, teran qatlamlari bilan har doim alohida e'tibor markazida bo'lgan. Ushbu maydonning zabardast namoyandalaridan biri – Sa'duddin Taftazoniydir. U "Talxis miftah-ul ulum" asariga ikki sharh yozgan. Ulardan

birinchisi "Mutavval" asari bo'lib, unda balog'atga doir bahslar keng doirada muhokama qilingan. Ikkinchisi, keyinchalik "Muxtasar" nomi bilan mashhur bo'lgan asar, muallifning o'zi tomonidan shunday nomlanmagan¹

¹ Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. – London: Muassasatul furqon, 2021. – J: 1. B: 473



bo'lsa-da, asrlar davomida shu nom bilan tirik yashab kelmoqda.

Ushbu asar vaqt o'tishi bilan bir necha bor nashr etilgan. Nashrlardan biri "Talxis"ga yozilgan sharhlar majmuasiga qo'shib, ilm ahli orasida keng tarqaldi. Yana bir nashrni Shayx Muhammad Muhyiddin Abdulhamid "Muxtasarul maoniy" nomi bilan e'lon qilib, unga yanada sayqal berdi. Uchinchi nashrni esa, Shayx Abdulmuta'ol as-Soiydiy tayyorlab, "Sharhul muxtasar" deb atadi. Shuningdek, kitobning boshqa bir qancha nashrlari ham mavjud bo'lib, ular mazmuni va uslubi jihatidan avvalgi nashrlardan farq qilmaydi.²

Asarning yozilish sababi:

Sa'duddin Taftazoniy asar muqaddimasida "Muxtasar"ni yozishga turtki bo'lgan holatni shunday hikoya qiladi:

"Men ilgari "Talxis miftah-ul ulum" asarini sharhlab chiqqan edim va uni yetarli darajada keng va ravshan qilib qo'yg'an edim. So'ng ko'p fazilat egalari mendan uni qisqartirishga, uning ma'nolarini bayon qilish va pardalarini ochishga kuch sarflashimni so'rab chiqdilar. Chunki ular hozirgi o'rganuvchilarning himmatlari uning nurlarining tug'yonini kuzatishga ojiz bo'lib qolganini, sirlarining yashirin joylarini kashf etishga iroda va azmlarining sustlashganini ko'rgandilar... Hamda ushbu fan bugun o'z hayotbaxsh suvini yo'qotib, ta'sirsiz bahs-jadalga aylanib qolganini, uning chiroyi ketib, hosilsiz ixtilofga aylanganini (ko'rib turardilar). Men ularni bu ishdan

qaytarishga harakat qilganim sari ularning talab va rag'batlari yanada oshdi. Shunda men ularning taklifiga binoan, kitobni ikkinchi marotaba sharhlashga kirishdim".³

Bu so'zlar o'sha zamon ilmiy muhitining ruhiy tasvirini chizadi. Sa'duddin Taftazoniyning ko'nglida o'sha davrda ilmning nuri so'nib borayotgan bir paytda uni qayta uyg'otish, murakkab ma'nolarni yengil yo'l bilan yetkazish istagi uyg'onadi. Shunday qilib, "Muxtasar" ana shu ichki tamoyil va tashqi talab o'rtasidagi uyg'unlik natijasida dunyoga keladi.

Asarning metodologiyasi:

"Muxtasar"ni mutolaa qilgan kishi Taftazoniy uslubining yangicha va o'ziga xos qirralarini yaqqol his qiladi. Asarda quyidagi tamoyillar asos bo'lgan:

1. Iboralarning nafisligi:

Taftazoniy "Muxtasar"da murakkab iboralardan ko'ra, o'quvchi qalbiga yaqin tushadigan soddaroq uslubni tanlaydi. Bu soddalik oddiylik emas, balki murakkab ma'noni ixcham shaklda yoritib beradigan ilmiy mahoratdir.

2. Munozaralarning

ixchamlashtirilgani: "Mutavval"da uchraydigan turli bahslar, savol-javoblar, dalil va inkorlar "Muxtasar"da deyarli keltirilmagan. Diqqatga sazovor joylarda "Mutavval"ga murojaat qilishga ishora qilib ketilgan.

3. Avvalgi matnlardan keltirilgan iqtiboslarning ma'nosini qisqartirilgani: Taftazoniy ko'plab olimlarning matnlarini batafsil keltirish o'rniga, ularning ma'nosini birgina ishora

² Ziyouddin al-Qolish. Taftazoniy va aarouhul balog'iyya. – Damashq: Dorun navodir, 2010. – B:70-71

³ Mas'ud ibn Umar Taftazoniy. Muxtasarul maoniy. – Karachi: Maktabatul bushro, 2010. – B: 11



bilan yetkazadi. Masalan, Qur'ondagi isti'ora turiga doir oyat sharhiga: "Bu haqda batafsil ma'lumotni "Mutavval"da bayon qildik", deb, kerakli manzilga ishora bilan kifoyalanadi. Bu esa ilmning nozik jihatlarini donolik bilan his etgan muallifning mahoratini ko'rsatadi.

4. Murakkab masalalarning ixcham talqini: "Al-Iyzoh" va "Al-Miftah" asarlarining ayrim nozik joylarini keltirish o'rniga, ularga faqat ishora qilish bilan cheklanadi. Lekin bu ishoralar mazmunning asosini yo'qotmaydi, aksincha uni yengil, tushunarli ko'rinishga keltiradi.

5. Manbalarni aniqlashtirish: Qiziqarli jihat shundaki, Taftazoniy ba'zi fikrlarga "Mutavval"da manba keltirmagan bo'lsa-da, "Muxtasar"da ularni Alloma Faxriddin Roziyning nomi bilan aniq bog'laydi. Bu asarning ilmiy puxtaligini oshiradi.⁴

Asarning balog'iy qadr-qimmatini:

"Muxtasar"ning ilmiy ahamiyati shunchalik yuksakki, unga alohida sharhlar, hoshiyalar yozilgan. Bu sharhlar faqat talqin emas, ular balog'atning turfa ranglarini o'zida mujassam etgan mustaqil ilmiy maktabdir.

Mashhur hoshiyalar:

1. Nizomiddin Uslom al-Xattoiy (hij. 901-yil vaf.) hoshiyasi – asrlar davomida qo'lma-qo'l bo'lib kelayotgan mashhur asarlardan.

2. Muhammad ibn Xatib (hij. 901-yil vaf.) hoshiyasi – ushbu asar muallifi

"Xatibzoda Rumi" nomi bilan ham mashhur.

3. Yusuf ibn Husayn al-Kirmostiy (hij. 906-yil vaf.) hoshiyasi.

4. Hamiduddin ibn Afzaluddin al-Husayniy (hij. 908-yil vaf.) hoshiyasi.

5. Ahmad ibn Yahyo ibn Muhammad al-Hiroviy (hij. 916-yil vaf.) hoshiyasi.

6. Muhaqqiq Mirzajon Habibulloh She'roziy (hij. 994-yil vaf.) hoshiyasi.

7. Shihobiddin Ahmad ibn Qosim al-Ibodiy al-Azhariy (hij. 994-yil vaf.) hoshiyasi – ba'zi shogirdlari muallifning "Muxtasar"ning hoshiyasiga o'z qo'li bilan yozgan yozuvlarini jamlashgan.

8. Abdulloh ibn Shihobiddin al-Yazdiy (hij. 1015-yil vaf.) hoshiyasi.⁵

Bu hoshiyalar "Muxtasar"ning ilmiy hayotda nechog'lik faol yashaganini ifodalaydi.

Asarga mashhur olimlarning bahosi:

Shayx al-Marog'iy Sa'duddin Taftazoniyning balog'atning nozik ma'nolarini teran his qilgan, nazariy tafakkuri eng yuqori darajada bo'lgan olim sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha: *"Sayyid Sharif (Jurjoni) bahs va jadalda g'olib bo'lsada, ma'noga chuqur kirishda va fikr nozikligida Taftazoniydan o'tmagan"*.⁶

Ibn Xaldun esa, Misrda uchratgan Taftazoniyning asarlarini yuqori baholab, shunday deydi: *"Unda balog'at, kalom, usul va falsafiy ilmlarni mukammal egallagan, mustahkam*

⁴ Sayyid Mas'ud Hasan Abdurrazzoq. Hashiyatul Javhariy 'ala muxtasari as-Sa'd Taftazaaniy. – Misr: Majallat ad-diroya, 2025. – B: 1253

⁵ Sayyid Mas'ud Hasan Abdurrazzoq. tahqiq: Hashiyatul Javhariy 'ala muxtasari as-Sa'd

Taftazaaniy. – Misr: Majallat ad-diroya, 2025. – B: 1254

⁶ Muhammad ibn Ahmad ad-Dasuqiyy. Hashiyatu ad-Dasuqiyy 'ala muxtasari ma'niy. – Bayrut: Maktaba al-asriyya, 2009. – J: 1. B: 8



malakaga ega ustaning qalb qo'lini ko'rdim".⁷

Bu baholar Taftazoniy asarining ilmiy saviyasini, "Muxtasar"ning qadri esa, uning qanday bir ilmiy salohiyat egasi tomonidan yozilganini ko'rsatadi.

"Muxtasarul maoniy" – bu oddiy bir qisqartma emas. Bu ilmning jadal va bahslardan charchagan bir davrida uni qayta jonlantirgan asar; murakkab fikrlarni ixcham shaklda taqdim etgan

balog'at durdonasi va o'z davridan oshib, keyingi asrlarga yetib kelgan ilmiy merosdir.

Sa'duddin Taftazoniy bu asarda soddalik va chuqurlikni birlashtirgan, balog'at ilmining ruhini ixcham satrlarga joylagan. Shuning uchun ham "Muxtasar" yaratilganidan beri bir necha asr o'tganiga qaramay, u hali ham o'qiladi, unga sharhlar yoziladi, u ilm talabalari uchun tirik manba sifatida xizmat qiladi.

References:

1. Hoji Xalifa. Kashfuz Zunun. – London: Muassasatul Furqon, 2021.
2. Mas'ud ibn Umar Taftazoniy. Muxtasarul Maoniy. – Karachi: Maktabatul Bushro, 2010.
3. Muhammad ibn Ahmad ad-Dasuqiy. Hashiyatu ad-Dasuqiy 'ala Muxtasaril Maoniy. – Bayrut: Maktaba al-Asriyya, 2009.
4. Sayyid Mas'ud Hasan Abdurrazzoq. Hashiyatul Javhariy 'ala Muxtasari as-Sa'd Taftazaaniy. – Misr: Majallat ad-Diroya, 2025.
5. Ziyouddin al-Qolish. Taftazoniy va Aarouhul Balog'iyya. – Damashq: Dorun Navodir, 2010.

⁷ Muhammad ibn Ahmad ad-Dasuqiy. Hashiyatu ad-Dasuqiy 'ala muxtasaril maoniy. – Bayrut: Maktaba al-asriyya, 2009. – J: 1. B: 8